# IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2021- yil yanvar-sentyabr oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko'paytirishga 17 194,0 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar o'zlashtirilib, o'sish sur'ati 117,8 %ni tashkil qildi. Asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarning 5 899,6 mlrd. so'mi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to'g'ri keldi. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida 5 910,8 ming so'mni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan ko'p ulushi, ya'ni 54,2 foizi viloyatning 5 ta hududi hissasiga, jumladan, Olmaliq shahri (19,1 %), Qibray tumani (12,3 %), Chirchiq shahri (8,7 %), Bo'stonliq tumani (7,2 %) va Nurafshon shahri (8,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.

**2021- yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi** *(mlrd. so'm)*



**2021- yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'sish sur'atlari** *(%da)*




Ayrim tumanlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. Jumladan, o'tgan yilning shu davriga nisbatan Nurafshon shahrida - 2,3 m., Qibray tumanida - 2,1 m., Ohangaron tumanida - 196,7 %, Bo'stonliq tumanida - 168,8 % va Quyi Chirchiq tumanida - 164,4 % o'sish kuzatildi.

**2021- yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori**
*(ming so‘mda, %da)*




Hududlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar hajmining yuqori ko‘rsatkichlari Olmaliq shahrida - 24 474,7 ming so‘m, Nurafshon shahrida - 28 126,5 ming so‘m, Chirchiq shahrida - 37 803,7 ming so‘m, Qibray tumanida - 12 400,3 ming so‘m va Zangiota tumanida - 7 402,1 ming so‘mni tashkil etdi. Aksincha, past ko‘rsatkich Oqqo‘rg‘on tumanida – 1 446,9 ming so‘mni, Bo‘ka tumanida - 1 018,3 ming so‘mni va Bekobod tumanida - 587,4 ming so‘mni tashkil etdi.

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi**

| | *mlrd. so'm* | *o'sish sur'ati, %* | *yakunga nisbatan %* |
|---|---|---|---|
| **Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar** | **10722,0** | **116,2** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| **Markazlashgan investitsiyalar:** | **3080,4** | **115,9** | **17,9** |
| budjet mablag'lari | 1732,8 | 101,2 | 10,1 |
| O'zR Moliya vazirligi huzuridagi suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi | 141,8 | 85,0 | 0,8 |
| Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari | 144,5 | 37,0 | 0,8 |
| Hukumat kafolati ostida chet el kreditlari | 1061,3 | 272,5 | 6,2 |
| **Markazlashmagan investitsiyalar** | **14113,6** | **118,3** | **82,1** |
| korxonalarning o'z mablag'lari | 6229,2 | 114,4 | 36,2 |
| tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlar qarz mablag'lari | 1492,5 | 103,1 | 8,7 |
| to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar | 2786,6 | 80,2 | 16,2 |
| boshqa qarz mablag'lari | 121,4 | 218,9 | 0,8 |
| aholi mablag'lari | 1553,5 | 159,7 | 9,0 |
| kafolatlanmagan xorijiy kreditlar | 1930,4 | 365,0 | 11,2 |

2021- yil yanvar-sentyabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalariga ko‘ra, eng yuqori ko‘rsatkich (jami investitsiyalarning 36,2 %i) korxonalarning o‘z mablag‘lari hisobiga (6229,2 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

**2021- yil yanvar-sentyabr oylari uchun asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari**

**Markazlashgan investitsiyalar**




**Markazlashmagan investitsiyalar**




To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘zlashtirilgan hajmi 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida 2786,6 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 80,2 %ni tashkil qildi. Bunda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich Qibray (566,6 mlrd. so‘m) va Quyi Chirchiq tumaniga (395,0 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi. Aksincha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha past natijalar Bo‘ka tumanida (31,6 mlrd. so‘m), Parkent tumanida (1,3 mlrd. so‘m) va Bekobod tumanida (0,4 mlrd. so‘m) kuzatildi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar**

*(mlrd. so‘m)*

| | Jami xorijiy investitsiya va kreditlar | *shu jumladan:* | | To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya | *shu jumladan:* | Kafolat-lanmagan kreditlar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Investitsiya | Kredit | | Reinvestitsiya | |
| **Viloyat bo‘yicha** | **5 899,6** | **2 907,9** | **2991,7** | **2 786,6** | **31,8** | **1 930,4** |
| *shaharlar:* | | | | | | |
| Nurafshon | 168,6 | 126,5 | 42,1 | 126,5 | 3,8 | - |
| Olmaliq | 852,1 | 108,6 | 743,5 | 108,6 | - | 729,6 |
| Angren | 262,6 | 165,4 | 97,2 | 165,2 | - | 97,2 |
| Bekobod | 127,3 | 127,3 | - | 127,3 | - | |
| Ohangaron | 336,3 | 179,5 | 156,8 | 178,5 | - | 98,6 |
| Chirchiq | 733,4 | 80,0 | 653,4 | 76,1 | - | 94,1 |
| Yangiyo‘l | 32,9 | 22,9 | 10,0 | 22,9 | 0,2 | 5,1 |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 73,6 | 33,1 | 40,5 | 32,9 | - | 40,7 |
| Ohangaron | 313,5 | 260,6 | 52,9 | 260,1 | - | 52,9 |
| Bekobod | 0,4 | 0,4 | - | 0,4 | - | - |
| Bo‘stonliq | 247,8 | 112,5 | 135,3 | 112,5 | - | 117,3 |
| Bo‘ka | 31,6 | 31,6 | - | 31,6 | - | - |
| Quyi Chirchiq | 549,6 | 417,9 | 131,7 | 395,1 | - | 131,7 |
| Zangiota | 426,2 | 107,2 | 319,0 | 106,2 | - | 219,6 |
| Yuqori Chirchq | 115,2 | 79,0 | 36,2 | 78,7 | - | - |
| Qibray | 878,9 | 567,1 | 311,8 | 566,6 | 3,3 | 149,9 |
| Parkent | 75,9 | 1,3 | 74,6 | 1,3 | - | 74,6 |
| Piskent | 91,3 | 50,1 | 41,2 | 50,1 | - | - |
| O‘rta Chirchiq | 142,2 | 142,2 | - | 142,2 | - | - |
| Chinoz | 67,3 | 66,1 | 1,2 | 62,9 | 13,9 | 1,2 |
| Yangiyo‘l | 196,1 | 165,7 | 30,4 | 77,9 | 10,6 | 4,2 |
| Toshkent | 176,8 | 62,9 | 113,9 | 62,9 | - | 113,5 |

**2021- yil yanvar-sentyabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi**

| | *Jami mlrd. so'm* | *foizda* | *Davlat* | *foizda* | *Nodavlat* | *foizda* |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Jami, mlrd. so'm** | **17 194,0** | **100** | **2243,0** | **13,0** | **14951,0** | **87,0** |
| *shu jumladan: umumiy hajmga nisbatan %da* | | | | | | |
| qurilish-montaj ishlari | 7233,0 | 42,1 | 1624,1 | 9,4 | 5608,9 | 32,6 |
| mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlar | 8970,6 | 52,2 | 517,6 | 3,0 | 8453,0 | 49,2 |
| boshqa harajatlar | 990,4 | 5,7 | 101,3 | 0,6 | 889,1 | 5,2 |

2021- yil yanvar-sentyabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining Mashinalar, asbob-uskunalar inventar, yo'naltirilgan ulushi 52,2 %ni tashkil qilib, umumiy hajmga nisbatan yuqori ulushga ega bo'ldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha**
**asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar**
*(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)*

*(mlrd. so'm)*

| | *yanvar-sentyabr* | | | |
|---|---|---|---|---|
| | *2020- y.* | *Umumiy hajmga nisbatan %da* | *2021- y.* | *Umumiy hajmga nisbatan %da* |
| **Jami:** | **13 333,7** | **100,0** | **17 194,0** | **100,0** |
| *shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha* | | | | |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 786,7 | 5,9 | 1 555,9 | 9,0 |
| tog'-kon sanoati | 2 023,4 | 15,2 | 1 176,7 | 6,8 |
| qayta ishlash sanoati | 3 212,6 | 24,1 | 4 248,0 | 24,7 |

| | *yanvar-sentyabr* | | | |
|---|---|---|---|---|
| | *2020- y.* | *Umumiy hajmga nisbatan %da* | *2021- y.* | *Umumiy hajmga nisbatan %da* |
| elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | 460,5 | 3,5 | 1 808,5 | 10,5 |
| suv bilan ta’minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va yo‘q qilish | 200,9 | 1,5 | 299,4 | 1,7 |
| qurilish | 567,4 | 4,3 | 526,6 | 3,1 |
| ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash | 603,9 | 4,5 | 262,4 | 1,5 |
| tashish va saqlash | 885,3 | 6,6 | 956,6 | 5,6 |
| yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 61,6 | 0,5 | 57,6 | 0,3 |
| aloqa va axborotlashtirish | 47,0 | 0,4 | 48,3 | 0,3 |
| moliya va sug‘urta faoliyati | 71,1 | 0,5 | 35,0 | 0,2 |
| ko‘chmas mulk bilan bog‘liq ishlar | 6,8 | 0,1 | 37,8 | 0,2 |
| malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyat | 250,1 | 1,9 | 353,1 | 2,1 |
| ma’muriy va qo‘shimcha xizmatlar | 0,2 | - | 9,9 | 0,1 |
| davlat boshqaruvi va mudofaasi; majburiy ijtimoiy ta’minot | 222,5 | 1,7 | 314,2 | 1,8 |
| ta’lim | 171,2 | 1,3 | 423,0 | 2,5 |
| sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 937,0 | 7,0 | 349,9 | 2,0 |
| san’at, ko‘ngil ochish va dam olish | 198,9 | 1,5 | 437,4 | 2,5 |
| uy-joy qurilishi | 1 005,9 | 7,5 | 1 748,9 | 10,2 |
| boshqa faoliyat turlari | 1 620,8 | 12,0 | 2 545,0 | 14,9 |

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha**
*(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)*




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarish sanoatida - 4248,0 mlrd. so‘m (jami investitsiyalar hajmida 24,7 %) tashkil etdi. Tog‘-kon sanoatida - 1176,7 mlrd. so‘m (6,8 %), uy-joy qurilishida - 1748,9 mlrd. so‘m (10,2 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida - 1555,9 mlrd. so‘m (9,0 %), davlat boshqaruvi va mudofaasi majburiy ijtimoiy ta’minotida - 314,2 mlrd. so‘m (1,8 %), san’at, ko‘ngil ochish va dam olishda - 437,4 mlrd. so‘m (2,5 %), tashish va saqlashda - 956,6 mlrd. so‘m (5,6 %), suv bilan ta’minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va yo‘q qilishda - 299,4 mlrd. so‘m (1,7 %), malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyatda - 353,1 mlrd. so‘m (2,1 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda - 349,9 mlrd. so‘m (2,0 %), ta’limda - 423,0 mlrd. so‘m (2,5 %) hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 57,6 mlrd. so‘m (0,3 %) investitsiyalar o‘zlashtirildi.

**Ijtimoiy soha obyektlarini qurilishi**

2021- yil yanvar-sentyabr oylarida umumiy maydoni 908,6 ming kv.m. bo‘lgan 3821 ta uy-joy, shundan, qishloq joylarida 743,7 ming kv.m. bo‘lgan 3003 ta uy-joy foydalanishga topshirildi.

**Qurilish faoliyati.** 2021- yil yanvar-sentyabr oylarida 6257,3 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 121,3 %ni tashkil etdi.

Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 5312,4 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 84,9 %ni (2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 9,5 % punktga kamaydi) tashkil qildi.

**Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish tashkilotlarining o‘z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti**
*(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)*



**Qurilish ishlari hajmining o‘sish sur’ati**
*(2020- yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, %da )*




Xususan, yuqori o‘sish sur’atlari Olmaliq shahar (333,0 %) va Qibray (147,7 %) tumanlarida kuzatildi. Aksincha, eng past ko‘rsatkich Toshkent (85,0 %) va Bo‘stonliq (80,4 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.